
Saxovatli insonlar ko'paysin



Saxovatli insonlar ko'paysin

Bu dunyoda yaxshilarning borligiga shukr. Ular bor ekan, hayot gullayveradi. Ana shunday yaxshi insonlarni So'x tumani, Hazrati Ali mahallasida juda ko'p uchratasiz. Topganini xalq bilan baham ko'radigan insonlardan biri bu Yulduzxon Nishonovadir. O'g'illariga meni xursand qilmoqchi bo'lsangiz, xalqqa madadkor bo'linglar deya bergan o'g'itlari zoye ketmadi. Yaqindagina mahalladagi chang ko'chalardan birini asfaltlashtirib bergan Yulduzxon onaning o'g'illari bu gal mahalladagi 50 nafar ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan shaxslar va ko'pni ko'rgan keksalarga o'z hisobidan un mahsuloti tarqatdi.

Homiylarning saxovatini haqiqiy mo'htoj shaxslarga o'z vaqtida yetkazib berayotgan mahalla raisi va deputati Subhonali Nishonovdan aholi minnatdor. Saxovatli insonlar ko'paygani yaxshi albatta.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-28 17:23:26